IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026

TEXNALOGIYA RIVOJLANGAN DAVRDA MAKTABLARDA ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI

Tolipova Jannat Xasan qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti 3-kurs talabasi
Email**:** jannatnormatova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21780983

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o‘quvchilarning tafakkur tarzi hamda adabiyotga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgarayotgani ta’kidlanadi. Darslarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, asar qahramonlarini o‘rganishda stereotiplardan xoli bo‘lish va yoshlarda mustaqil, tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalalari chuqur tahlil qilingan. O‘qituvchilarning tayyor tahlillarni taqdim etishi o‘rniga, o‘quvchilarning o‘zlariga xos individual fikrlarini qo‘llab-quvvatlash va ularni ijodiy izlanishga undashning samarali usullari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Texnalogiya, metodika, stereotip, interaktiv usullar, sun’iy intelekt, innovatsion pedagogika, raqamli texnalogiya.

30 yil avvalgi maktab bolalari bilan hozirgi davr bolalarining o‘rtasidagi farq e’tiborni jalb qiladi. Hayot tarzimiz, yashash qoidalamiz, texnalogiya va hattoki ekalogiyamiz ham tubdan o‘zgardi. Bu esa albatta endi o‘quvchilarimizga nisbatan o‘qituvchilarning dars o‘tish jarayoniga bevosita ta’sir etadi. O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi shunchaki akademik fan emas, balki inson ruhiyatini tarbiyalaydigan, millat ma’naviyati va o‘z-o‘zini anglashini shakllantiradigan buyuk so‘z san’atidir. Adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi o‘quvchiga faqat tayyor ma’lumot berish emas, balki unda badiiy-estetik didni o‘stirish, kitobga va so‘z san’atiga mehr uyg‘otish, eng muhimi “estetik to‘yinish” hissini paydo qilishdan iboratdir.

Adabiyotni o‘qitish boshqa aniq va tabiiy fanlarni o‘rgatishdan keskin farq qiladi. Chunki adabiyot darsida fakt va raqamlar emas, balki tuyg‘u, kechinma, botiq kechinmalar hamda badiiy obraz yetakchi o‘rin tutadi. Shu sababli metodikaga uch xil yondashuv mavjud:

1. Fan sifatida: Adabiy ta’limning maqsadi, mazmuni va qonuniyatlarini ochib beradi. U ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilim berish tamoyillarini belgilaydi.
2. San’at sifatida: O‘qituvchining dars berish mahoratini san’atkorlik bilan tenglashtiradi. Darsda o‘qituvchi xuddi aktyor yoki rejissyor kabi o‘quvchi qalbida hayajon, zavq va mulohaza uyg‘ota olishi kerak.
3. Amaliy ko‘makchi sifatida: Darslarning samarali, qiziqarli va ta’sirchan o‘tishiga bevosita yordam beradigan usul va vositalar majmui deb qaraladi.

Metodikaga buyuk soha vakillari ham qisqa va tushunarli qilib o‘z qarashlarini bayon etishgan:

M.A. Ribnikova: Metodikani vaqtni tejash, o‘quvchi kuchini oqilona sarflash va jamoa mehnatini to‘g‘ri tashkil etish san’ati deb biladi.

V.V. Golubkov: Har qanday metodika uchta asosiy savolga aniq javob berishi kerakligini ta’kidlaydi: Nima uchun o‘qitiladi? Nimani o‘qitish kerak? va Qanday o‘qitish lozim?

N.I. Kudryashev va A. Zunnunov: Metodikani o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitadigan, ularni estetik tarbiyalaydigan va badiiy obrazlar mohiyatini ochadigan xususiy pedagogik fan sifatida tavsiflaydilar.

Bu yirik olimlarning ta’riflarini umumlashtiradigan bo‘lsak, metodika bu qoidalarning quruq yig‘indisi emas, balki pedagogik mahorat, aniq strategik re’ja hamda inson ruhiyatini

tarbiyalash san'atining mukammal sintezidir. Adabiyot metodikasining asosiy vazifalari va tamoyillarini ham qisqa qilib o'rganadigan bo'lsak, ularga quyidagilar kiradi:

1) Kitob o'qish madaniyatini hamda badiiy asarni so'z san'ati sifatida chuqur idrok etish ko'nikmasini shakllantirish.

2) Ta'lim bosqichlarida (maktab, akademik litsey, oliy ta'lim) adabiy ta'limning maqsadi, vazifasi va mazmunini (davlat ta'lim standartlari, dastur va darsliklarni) belgilash.

3) Darslarni tashkil etishning yangi, interaktiv usul hamda shakllarini loyihalashtirish.

4) O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida eski "hokim-tobelik" tizimidan voz kechib, "hamkorlik pedagogikasi" hamda erkin muloqotni qaror toptirish.

5) O'quvchilarda tanqidiy fikrlash (critical thinking) va asarga shaxsiy munozarali munosabat bildirish qobiliyatini o'stirish.

Tamoyillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda ba'zi birlariga qisman bo'lsa ham to'g'ri kelmayotgani mavjud. Masalan, to'rtinchi va beshinchi tamoyillariga qarshi ba'zi harakatlar ko'rinadi. Misol uchun biz bilamizki darslarda asar tahlil qilayotganimizda o'quvchilarni albatta fikrlarini eshitamiz, ammo tahlil yakunida o'qituvchi barcha o'quvchilarning fikri ustiga qat'iy bir fikr qo'yadi. Masalan "O'tkan kunlar" asaridagi "Zaynab" obrazini ba'zi o'quvchilar yomon obraz deyishlari, ba'zilari esa eng ko'p azob cheksa ham baxtli bo'la olmagan obraz sifatida ko'rinishi mumkin. 10 ta o'quvchidan 10 xil fikr chiqadi. Ammo o'qituvchilar stereotip fikrlarni, ya'ni qoliplashib qolgan, odatiy qarash bo'lib qolgan fikr bilan asarni tahlil qilib yakunlab beradi. Aslida o'quvchining o'ziga qo'yib berish kerak asarni. To'g'ri muallif bir asar yozayotgan ekan u albatta standart bir tushunchani yoritib berish uchun yozadi va o'qituvchi buni ochib berishi kerak, ammo endi bunday qilish biroz nojoizdir. Sababi o'quvchidan biz asardagi qahmor haqida yoki asarning o'zi haqida o'qib kelib fikr bildirishini so'rasak, u mutloq sun'iy intelektdan foydalanadi. Negaki hozirgi kunda sun'iy intelekt juda rivojlangan. Unga asarni tashlab "Bu asarda muallif bizga nima demoqchi, asar qahramonlariga tavsif ber" deb so'rov yuborsa, u albatta bunga javobni yuqori darajada to'g'I yozadi. O'qituvchi doimiy ba'zi fikrlarga qarshi kelib "yo'q aslida bunday demoqchi" deyishi o'quvchining o'z tushunchasini aytishdan tortadi. Bu esa o'quvchini o'z fikriga ega bo'la olmasligi, darsda tushunchasini bildirishga qo'rqishiga sabab bo'ladi. Shu sababli o'qituvchilar stereotip fikrdan uzoqlashgani ma'qul. O'qituvchi o'ziga foydali saboqlarni asarni o'qib o'zi tushunib yetishi kerak. O'quvchilarga vazifalarni AKT (Axborot kommunikativ texnalogiyalari) orqali tayyorlab kelishlarini aytish ham hozirgi davga mos keladi. Masalan "Kahoot!", "Learning aps", "Quizbot" kabi ilovalar orqali o'yin tayyorlash ham maroqli bo'ladi ham ularni asarni o'qishga undaydi

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi sobiq mafkuraviy va qolipli qarashlardan xoli bo'lib, o'zining asl milliy, ma'rifiy va estetik ildizlariga qaytdi. Bugungi kun adabiy ta'limining bosh maqsadi o'quvchini shunchaki kitobxonga emas, balki asar bilan ruhiy muloqotga kirisha oladigan, teran fikrlaydigan va so'z qadrini anglaydigan komil shaxsga aylantirishdir. Buning uchun esa milliy mumtoz adabiyotimiz an'analari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'un holda qo'llash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://www.ziyouz.com/kutubxona
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2006.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi (An'anaviylikdan zamonaviylikka). - Toshkent: Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020.
4. Zunnunov A., Xotamov N. (1992). "Adabiyot o'qitish metodikasi". Toshkent: O'qituvchi.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova K. Adabiyot o'qitish metodikasi. I tom. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo nashriyoti, 2022.